



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

ERTAKLARNI MULTIMEDIA ILOVALAR ASOSIDA O'QITILISHIDA JAHON TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH

Abdusattorova Dilshodabegim
ToshDO'TAU doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ertaklarni multimedia ilovalari asosida o'qitishning nazariy va amaliy jihatlari, xorijiy mamlakatlar tajribalari hamda O'zbekiston ta'lim tizimida bu yo'nalishni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda AQSh, Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya kabi davlatlardagi ilg'or metodikalar tahlil qilinib, o'qitish jarayonida multimedia vositalarining samaradorligi ilmiy asosda baholangan.

Kalit so'zlar: ertak, multimedia ilovalari, raqamli ta'lim, interaktiv o'qitish, xalqaro tajriba, o'quvchi faolligi.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar va multimedia vositalarining o'rni tobora ortib bormoqda. Bu, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish darslarini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ertaklarni multimedia asosida o'qitish o'quvchilarni faollikka undaydi, ularning mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi

Ertaklar xalq og'zaki ijodining qadimiy janri bo'lib, u nafaqat ma'naviy tarbiya vositasi, balki bolalarda til boyligini, tasavvurini va axloqiy fazilatlarni shakllantiruvchi muhim pedagogik manbadir. Shu sababli, ularni multimedia vositalari yordamida o'qitish zamonaviy ta'limda dolzarb masalalardan biridir. Shu boisdan ularni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan, xususan, multimedia ilovalari (audio, video, animatsiya, interaktiv o'yinlar) dan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Jahon ta'lim amaliyotida, xususan, Finlyandiya, Janubiy Koreya, AQSh, Yaponiya, Turkiya va Buyuk Britaniya tajribalarida ertaklarni multimedia ilovalari asosida o'qitish keng tarqalgan. Ushbu mamlakatlarda bolalarda ijodkorlik, tafakkur, so'z boyligini oshirish hamda madaniy qadriyatlarni singdirishda raqamli ertak platformalari samarali qo'llanadi.

Metodlar

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

1. Tahliliy metod – jahon mamlakatlarida multimedia asosida ertak o'qitish tajribalarini tahlil qilish;
2. Qiyosiy metod – O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llanilayotgan multimedia ilovalarini xorijiy amaliyot bilan solishtirish;
3. Amaliy kuzatuv – multimedia dasturlari orqali ertaklarni o'qitish jarayonining natijalarini kuzatish va baholash.

Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida AQShdagi Storyline Online, Koreyadagi Tuntun English Fairy Tales, Finlyandiyaning Edustory, hamda Turkiyaning EBA (E'gitim Bilişim Ağı) platformalaridan foydalanilgan

Natijalar

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, jahon ta'lim amaliyotida multimedia ilovalari quyidagi shakllarda samarali qo'llanadi:

1. Interaktiv video ertaklar – bolalar hikoyaning davomiga ta'sir qiluvchi tanlovlar qiladi. Bu usul AQShda keng qo'llaniladi (masalan, Storyline Online platformasi). Bu bepul onlayn platforma bo'lib, unda mashhur aktyorlar bolalar uchun ertak va hikoyalarni video shaklida o'qib berishadi. Unda har bir video animatsiyalar tovush effektlari bilan boyitilgan, Platforma AQSHning 30dan ortiq shtatlaridagi maktablarda o'qish fanining asosiy manbalaridan biri sifatida foydalaniladi. Pedagogik kuzatuvlarga ko'ra, bu platformadan

muntazam foydalangan o'quvchilarda matnni tushunish va qayta hikoya qilish ko'nikmlari 45% ga oshgan, so'z boyligi esa o'rtacha 25% ga kamaygan.

2. Animatsion ta'lim ilovalari – Janubiy Koreyada “Tuntun” platformasi yordamida ertaklar jonli animatsiya orqali namoyish etiladi. Bolalar so'z boyligini oshirish va talaffuzni to'g'rilash imkoniga ega bo'ladilar. Janubiy Koreyada yaratilgan interaktiv multimedia dasturida, xalq va ingliz ertaklari animatsion shaklda taqdim etiladi. Dasturda har bir sahna animatsion harakatlar bilan jonlantirilgan, bolalar esa interaktiv tugamalar orqali qahramonlar bilan muloqotga kirishadi. Bu platforma orqali bolalarda qaror qabul qilish, mantiqiy fikrlash va ijodiy tafakkur yanada rivojlanadi. Koreya ta'lim tadqiqotlari institutining ma'lumotlariga ko'ra “Tuntun” ilovasidan foydalangan bolalarda o'qish motivatsiyasi 60% ga, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish darajasi esa 70% ga oshgan.

3. Audio-ertaklar – Finlyandiyada “Edustory” loyihasi orqali audio ertaklar eshitish orqali idrokni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu usul disleksiyaga ega bolalar uchun ham samarali deb topilgan. Finlandiya ta'lim tizimi “raqamli ertaklar” konsepsiyasiga asoslangan. Bu loyiha orqali har bir o'quvchi ertakni o'qib, keyinchalik uni ovozli yoki video shaklida qayta hikoya qiladi. O'qituvchi har bir bolaga audio yozuv orqali fikr biladiradi. Ushbu platforma inklyuziv ta'lim tamoyiliga mos ishlab chiqilgan, ya'ni disleksiya yoki eshitish muammosi bo'lgan bolalar uchun maxsus audio-versiyalar mavjud. Tahlil natijalariga ko'ra bu loyihada qatnashgan o'quvchilar nutq faolligi 50% ga, eshitish orqali idrok darajasi esa 65% ga oshgan.

4. Virtual haqiqat (VR) ertaklari – Yaponiyada “FairyTale VR” dasturi yordamida bolalar ertak olamiga virtual tarzda kiradi. Bu usul bolalarda hissiy tajriba va obrazli fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, ular “Momotaro” yoki “Bambukdagi qiz” ertaklari chida harakatlanib, voqealarning faol ishtirokchisiga aylanadi. VR ko'zoynaklari orqali o'quvchi ertakdagi muhitni ko'radi, qahramonlar bilan suhbatlashadi va topshiriqlarni bajaradi. Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, VR asosida o'qitilgan o'quvchilarda emotsional idrok (voqeaga kirishish) darajasi 90% gacha oshgan, an'anaviy kitob orqali o'qitilgan sinflarda esa bu ko'rsatkich 50% atrofida bo'lgan.

5. Integratsion platformalar – Turkiyaning “EBA” tizimida ertaklar ona tili, san'at, musiqa fanlari bilan integratsiya qilingan multimedia darslar shaklida taqdim etiladi. Unda xalq ertaklari va zamonaviy hikoyalar video, audio, test, rolli o'yinlar ko'rinishida joylashtirilgan. Masalan, “Kelog'lan” ertaklari animatsion shaklda berilib, oxirida o'quvchilar uchun axloqiy tahlil topshiriqlari mavjud. Bu platforma orqali har bir ertak darsi musiqa, san'at, va ona tili fanlari bilan integratsiya qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu platformadan foydalangan o'quvchilarning ifodali o'qish va ertakni qayta hikoya qilish ko'nikmalari 38% ga yaxshilangan.

Mazkur tajribalar asosida aniqlanishicha, multimedia asosida ertaklarni o'qitish:

- o'quvchilarning faol ishtirokini oshiradi;
- axborotni eslab qolish darajasini 40–60% gacha ko'paytiradi;
- nutq va tafakkur rivojini jadallashtiradi;
- madaniy qadriyatlar va axloqiy tarbiya berishda yuqori natijalar beradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda “Bilimlar karvoni”, “UzEdu”, “Maktab TV” kabi platformalarda multimedia asosidagi darslar yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, ertaklarni interaktiv usulda o'qitish tajribasi hali keng joriy etilmagan. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, multimedia ilovalari orqali o'qitish nafaqat o'quvchining qiziqishini oshiradi, balki o'qituvchining metodik yondashuvini ham zamonaviylashtiradi.

Shuning uchun O'zbekiston sharoitida:

- Milliy ertaklar asosida interaktiv raqamli kutubxonalar yaratish;
- Animatsion ertak ilovalarini ishlab chiqish;
- Dars jarayonida virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) texnologiyalaridan foydalanish;

- O'qituvchilarni multimedia pedagogikasi bo'yicha qayta tayyorlash kurslariga jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ertaklarni multimedia ilovalari asosida o'qitish bolalarda nafaqat bilish faoliyatini, balki axloqiy, estetik va madaniy qadriyatlarni ham shakllantiradi. Multimedia o'quv jarayonini jonlantiradi, o'qituvchiga interaktiv muloqot yaratish imkonini beradi. Ertaklarni multimedia ilovalari asosida o'qitish zamonaviy ta'limning eng samarali yo'nalishlaridan biri bo'lib, u an'anaviy dars usullarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, multimedia ilovalarining qo'llanilishi o'quvchilarda nafaqat o'qish va eshitish malakasini, balki ijodiy fikrlash, emotsional idrok va muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Ertaklarni multimedia ilovalari asosida o'qitish o'quvchilarda o'qish jarayoniga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi, ularning ma'naviy olamini boyitadi, mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Bu yo'nalishdagi xorijiy tajribalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, raqamli ertak ilovalari ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, O'zbekiston maktablarida o'zbek xalq ertaklarini multimedia asosida o'qitish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, o'qituvchilarni raqamli pedagogika yo'nalishida tayyorlash va milliy ertaklar fondini yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'raev M. (2022). Boshlang'ich ta'limda o'qish darslarini samarali tashkil etish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Mahmudov N. (2020). Pedagogik texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanish asoslari. – Toshkent: O'qituvchi.
3. Usmonova G. (2021). "Multimedia ilovalari yordamida o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish." – Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, №2, 45–49-betlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2022). Raqamli ta'lim strategiyasi – 2030. – Toshkent.
5. Mamatqulova D. (2019). "Ertaklarni o'qitishning zamonaviy texnologiyalari." – Boshlang'ich ta'lim va tarbiya jurnali, №3, 30–34-betlar.
6. Ziyonet ta'lim portali. <https://www.ziyonet.uz> (<https://www.ziyonet.uz/>)